-o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga o‘z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga teng imkoniyatlar beriladi;

-o‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi;

-o‘quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari shart emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo‘lishiga erishish lozimligini anglaydilar;

-o‘quvchilar bilan hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlashi orqali qo‘yilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, olingan natijalarni tahlil qilish, ularning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e’tirof etilishiga erishishlari lozim.

Xulosa. Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, maktab geografiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchining bilish faolligini oshiradi, geografik va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Biroq, an’anaviy metodlardan butunlay voz kechish noto‘g‘ri yondashuvdir. Murakkab nazariy bilimlarni bayon qilishda an’anaviy tushuntirish usullaridan, ularni amaliyotda qo‘llash va rivojlantirishda esa interfaol metodlardan foydalanish, ya’ni ikki metodikani bir-birini to‘ldiruvchi tarzda uyg‘unlashtirish (integratsiya qilish) eng yuqori pedagogik samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2011/2012.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. -Toshkent: Iste’dod, 2008.
3. Olimova A. Geografiyani o‘qitishda kartografik metodni qo‘llashning zamonaviy yondashuvlari va asosiy tamoyillari // O‘zMU Xabarlari. -Toshkent, 2024.
4. Qalandarova M.K. Geografiya o‘qitish metodikasi (Amaliy ishlar). –Toshkent, 2022.
5. Tolipov O‘.Q., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: Fan, 2006.
7. Vaxobov X., Alimqulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi. -Toshkent: 2021. - 360 b.
8. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -Toshkent: O‘qituvchi.

GEOGRAFIYA TA’LIMIDA GRAFIKLI ORGANAYZERLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING TAHLILIY FIKRLASH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Pirnazarov Ravshan Topvoldiyevich
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
Mo‘minov Doniyor G‘ulomovich
Qo‘qon davlat universiteti Geografiya va iqtisodiyot kafedrasi dotsenti g.f.n
Karimova Ruxshona Yigitali qizi
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya yo‘nalishi 4-kurs o’quvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada geografiya fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda grafikli organayzerlardan foydalanishning metodik va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada grafikli organayzerlarning mazmuni va vazifasiga ko‘ra 3 ta asosiy guruhga bo‘linishi nazariy va amaliy misollar bilan asoslab berilgan. Muallif “Klaster”, “Toifalash jadvali”, “T-jadval”, “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti” va “Konseptual jadval” kabi organayzerlarni dars jarayoniga tatbiq etish usullarini ko‘rsatib bergan. Tadqiqot natijalari grafikli organayzerlar o‘quv materiallarini vizuallashtirish, talabalarning kognitiv va tanqidiy fikrlashini hamda amaliy-tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *geografiya ta’limi, interfaol usullar, grafikli organayzerlar, klaster, Venn diagrammasi, Baliq skeleti, T-jadval, Konseptual jadval, urbanizatsiya, geodinamik jarayonlar.*

Kirish. Ma’lumki, fanlarni o‘zlashtirish ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulot (seminar) darslari orqali amalga oshiriladi. Ma’ruza talabalarning nazariy bilimlarini oshirsa, laboratoriya hamda amaliy (seminar) mashg‘ulotlar talabalarning nazariy olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llashlariga, pirovardida talabalarda kasbiy malaka va ko‘nikmalarni shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Zamonaviy pedagog o‘tilajak dars mashg‘ulotini loyihalashtirar ekan, har bir dars mavzusining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda eng maqbul usulni tanlay bilishi lozim bo‘ladi. Bugungi kunda ilg‘or pedagoglar tomonidan dars o‘tishning juda ko‘plab interfaol usullari ishlab chiqilmoqdaki, ulardan uslubiy jihatdan to‘g‘ri foydalanish o‘qituvchi mehnatini yengillashtirishga, talabalarning faollligini oshirishga, eng muhimi, dars samaradorligini ortishiga olib keladi.

Dars jarayonida qo‘llanilayotgan interfaol usullar turli maqsadlarga yo‘naltiriladi. Ular yordamida fan yoki mavzu bo‘yicha biror bir muammoni tarkiblashtirish, tahlil qilish hamda ularni yechish yo‘llarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shunday usullardan biri bu grafikli organayzerlardir.

Grafikli organayzerlar o‘zining soddaligi, talabalar uchun tushunishni osonligi, qo‘llanilish usullarining oddiyligi, eng muhimi, komplekslilig bilan boshqalardan farqlanadi.

Natija va muhokama. Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi bo‘lib, mazmuni va vazifasiga ko‘ra quyidagi 3 ta guruhni tashkil etadi [1; 2; 3; 7]:

1-guruh: Ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari. Bu guruhga klaster, toifalash jadvali, insert hamda B/B/B jadvalini kiritishimiz mumkin.


2-guruh: Ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: Bu guruhga T-jadvali, Venn diagrammasi misol bo‘ladi.

3-guruh: Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari. Bu guruh “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari hamda “Qanday?” ierarxik diagrammasidan tarkib topgan.

Hozirgi kunda grafikli organayzerlardan ta’lim jarayonida, hususan geografiya darslarida ham juda keng foydalaniladi. Quyida grafikli organayzerlarining ayrimlarini “Urbanizatsiya jarayoni” mavzusiga tadbiqi yuzasidan tajribamizni o‘rtoqlashamiz.

“Klaster” – tutam, bog‘lam ma’nosini bildiradi. “Klaster” usulidan odatda klassifikatsiya, ya’ni tasniflashda foydalaniladi [1]. Masalan, o‘qituvchi talabalardan O‘zbekistondagi shaharlarning nomlarini aytishni so‘raydi. Talabalar tomonidan aytilgan shaharlarni doskaga tartibsiz ravishda yozishni boshlaydi. Yozayotganda imlo xatolar yoki husnixatga qarab o‘tirish shart emas, muhimi yozish kerak, talabalar aytayotgan har bir shahar nomini ortiqcha muhokama qilmasdan yozib olish kerak. Chunki, bir zumgina to‘xtalish, talabalar tomonidan bildirilayotgan fikrlar oqimini tugallanib qolishiga sabab bo‘ladi. Yozish ohirgi fikr aytilgunga qadar davom etadi. Orada talabalar tomonidan fikrlar to‘xtalib qolganda o‘qituvchi o‘zi ham shahar nomini aytib, jarayonni davom etishiga yordam berishi mumkin. Barcha fikrlar yozib olingandan keyin, shahar nomlari maqsadga ko‘ra guruhlarga

birlashtiriladi. Aytaylik viloyatlarga tegishli shaharlar yoki aholi soniga ko‘ra shahar tiplari birlashtirilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. “O‘zbekiston shaharlari” mavzusida tuzilgan klaster namunasi

Toifalash jadvali. “Toifalash jadvali”dan klaster bilan birgalikda foydalaniladi. Bunda talabalar tomonidan tuzilgan klaster ma’lumotlari “Toifalash jadvali”da ifodalanadi. Odatda, “Toiflash jadvali” tuzishni talabalarga mustaqil topshiriq sifatida bergan maqsadga muvofiq [3]. Chunki, talaba mustaqil ravishda toifalash jadvali tuzganda, klasterdagi ma’lumotlarni bir necha marotaba takror ko‘rib chiqishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z navbatida ma’lumotlarni hotirada uzoq vaqt saqlanib qolinishiga sabab bo‘ladi. Zero, takrorlash – bilimningonasidir, deb bejiz aytilmagan.

Ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash uchun “T-jadvali”, “Konseptual jadval” hamda “Venn diagrammasi”dan foydalaniladi.

“T-jadvali”dan odatda masalaning ijobiy va salbiy tomonlarini o‘zaro taqqoslashda foydalaniladi. Masalan, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan shaharlashish, ya’ni urbanizatsiya jarayonini “T-jadvali” orqali baholab ko‘raylik (1-jadval).

1-jadval

T-jadval. Urbanizatsiya jarayonining ijobiy va salbiy jihatlari (urbanizatsiya jarayonini davlat tomonidan tartibga solinishi yoki solinmaslik holatlari bo‘yicha)

Ijobiy jihatlari	Salbiy jihatlari
Mehnat resurslari ortadi	Ishsizlar soni ortadi
Mutaxassis kadrlarni tanlab olish imkoniyati ortadi	Ishga joylashishda korrupsiya holatlari ortib ketadi
Tovar ishlab chiqaruvchilar uchun ichki bozorni iste’mol tovarlari bilan to‘ldirish imkoniyati ortadi	Iste’mol bozoridagi mahsulotlarning defitsiti kuzatiladi
Bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi	Iste’mol tovarlari narxlarining ortishi kuzatiladi
Shaharni vertikal va gorizontal kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi	Uy-joy tanqisligi kuzatiladi
Qurilayotgan yangi ko‘pqavatli uylarga talab ortadi	Uy-joylarning narxi sun’iy ravishda ko‘tarilib ketadi


Ta’lim muassasalarining sonini ortishi bilan ta’limda raqobat muhiti yaratiladi	Ta’lim muassasalarining yetishmasligi kuzatiladi
Zamonaviy klinikalar qurish imkoniyati paydo bo‘ladi	Sog‘liqni saqlash muassasalarining yetishmasligi kuzatiladi
Infratuzilmani rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi	Qashshoqlar soni ortib ketadi
Dunyoning komfort shaharlari ro‘yxatidan joy olish imkoni paydo bo‘ladi	Ekologik muammolar avj oladi

Ko‘rinib turibdiki, “T-jadval”dan foydalanish orqali masalani atroflicha muhokama qilish hamda yakuniy xulosa chiqarish oson bo‘ladi. Bu o‘z-o‘zidan mavzuni taldabalarga tushunilishini yengillashtiradi.

Ma’lumki, so‘nggi yarim asr mobaynida katta iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishgan Turkiya, Xitoy, Hindiston, Filippin va hatto industrial rivojlangan Yaponiya da ham migratsion jarayonlar va unda ishtirok etgan fuqarolarning insoniy kechinmalari sotsiologiyasini izchil ilmiy o‘rganish orqali katta yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Ularning tajribalaridan bugungi kunda rivojlanib borayotgan boshqa mamlakatlar ham unumli foydalanmoqda.

Bugun dunyoda migratsiyada ishtirok etayotganlarning soni keskin oshib borayotganini kuzatar ekanmiz, yaqin kelajakda ularning soni yanada ortishi bashorat qilinayotgani bejiz emas. Migratsiya ko‘lami kengayishiga kambag‘allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka nisbatan umidsizlik va tushkunlikka tushish, turli xil nizolar, urushlar tufayli notinchlik, qo‘rquv kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Dastlab o‘qituvchi talabalarni topshiriqning maqsad va vazifalari bilan tanishtiradi. Bunda talabalar ikki guruhga bo‘linadilar. Birinchi guruh tashqi migratsiya va ikkinchi guruh ichki migratsiya jarayonini o‘rganib chiqib, o‘zaro muqokama qiladilar. Har ikki guruh belgilangan vaqt davomida o‘zlariga berilgan topshiriqlar asosida “Venn diagrammasi” tuzadilar. Bunda diagrammani ikkita doirasi tegishli ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi (2-rasm).



2-rasm. “Migratsiya” mavzusida tayyorlangan “Venn diagrammasi”

Ajratilgan vaqt yakuniga etgach, har ikki guruhning ishlari taqdimot shaklida muhokama qilinadi. Ishlar butun guruh ichida qayta muhokama qilingandan keyin, ikkala

guruhning tayyorlagan ishlari birlashtirilib, doiralarning kesishga qismiga ichki va iashqi migratsiyalar uchun umumiyts bo‘lgan xususiyatlar yoziladi (raqamlar qo‘yilishi ham mumkin). Ish yakunida “Venn diagrammasi” hosil bo‘ladi (2-rasm).

Diagramma xalqalari kesishmasidagi 1 x 1, 4 x 3, 7 x 4, 9 x 5, 10 x 6 raqamlari har ikkala xalqaga yozilib, bir-biriga mos kelgan jihatlarning tartib raqamlaridir. Bu bilan talaba ichki va tashqi migratsiyaning umumiy va xususiy jihatlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi.

Migratsion jarayonlarni tahlil etishda uning muhim muammolari mavjudligini ham inobatga olish zarur. Xususan, aksariyat hollarda migrantlar ekspluatatsiya qilinib, ularning huquqlari poymol etiladi. Migrantlarning joylashgan mamlakatlari madaniyati va turmush tarziga moslashuvi, integratsiyalashuvi qiyin kechadi. Ularni qabul qilayotgan davlatlar tub aholisini ish joylaridan mahrum etadi. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy aholining migrantlarga nisbatan salbiy munosabatini shakllantiradi. Ushbu va boshqa ko‘plab sabablarga ko‘ra, migratsiya muammosini har tomonlama, shu jumladan, siyosiy-sotsiologik jihatdan o‘rganish talab qilinadi.

Bu borada migratsiya muammolarini tahlil qilish va o‘rganishda muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari tarkibiga kiruvchi “Baliq skeleti”dan foydalanish kutilgan samarani beradi (3-rasm).



3-rasm. “Migratsiya jarayoni” mavzusida “Baliq skeleti” sxemasi – muammo osti muammolari va ularni tasdiqlovchi faktlarni aniqlash

“Baliq skeleti” sxemasining vazifasi muammo osti muammolari va ularni tasdiqlovchi faktlarni aniqlashdan iborat. Bunda baliq skeletining bosh qismiga asosiy muammo, yuqoridagi suyakchalariga kichik muammolar hamda pastdagi suyakchalariga esa kichik muammolarni tasdiqlovchi faktlar yoziladi.

1964-yilning 24-aprelida Zarafshon daryosi havzasida (Ayniy qishlog‘idan 1 km yuqorida) hajmi bo‘yicha ulkan tog‘ qulashi sodir bo‘ldi. Yonbag‘irning qulashi natijasida uzunligi 750 m, eni 1000 m va balandligi 130–150 m bo‘lgan tabiiy to‘g‘on (“Ayniy to‘g‘oni”) shakllanib, daryo o‘zanini to‘liq to‘sib qo‘ydi [8]. Ushbu jarayonning kelib chiqish

sabablari va xavf dinamikasini “INSERT” va “Konseptual jadval” organayzerlari yordamida tahlil qilish dars samaradorligini oshiradi (2-jadval).

2-jadval.

“Ayniy to‘g‘oni” shakllanishi va gidrologik oqibatlari parametrik jadvali

Omilli guruhlar	Aniqlangan ilmiy sabablar va parametrik ma’lumotlar	Gidrologik va xavflilik oqibatlari
Meteorologik va gidrologik omillar	Bahorgi yog‘inlarning me’yordan keskin oshishi (ko‘p yillik me’yor 50 mm o‘rniga 171 mm yog‘ishi) [8; 9].	Buloq va qor-yo‘mron suvlarining tog‘ jinslari orasiga singib, ishqalanish koeffitsientini kamaytirishi.
Geologik va seysmik omillar	Yuzadagi bo‘sh va yuviluvchan jinslarning qattiq tub jinslardan ajralishi hamda Samarqand seysmik stansiyasida qayd etilgan 4 balli zilzila [9].	Daryo o‘zanining to‘liq to‘silishi va 90 mln. m^3 hajmga ega bo‘lgan vaqtinchalik ko‘lning shakllanishi [8].
Infratuzilmaviy va muhandislik yechimlari	Suv sathining 71,6 m ga ko‘tarilishi va to‘g‘on o‘pirilish xavfining yuzaga kelishi [8].	To‘g‘on ustidan favqulodda kanal qazilib, suv massasining xavfsiz oqizib yuborilishi [8; 9].

Grafikli organayzerlar yordamida regional va global ekologik-gidrologik ofatlarni qiyoslash mumkin. Masalan, Himolay tog‘larida (Langtang Lirung tizmasi, 5200–5400 m balandlikda) ro‘y bergan muz va qoya massasining qulashi (Lende Khola daryosi to‘silishi va Trishuli daryosidagi katastrofik sel) hamda Farg‘ona vodiysidagi Shohimardonsoy (Qurbonko‘l, Oxunko‘l) va Isfayramsoy havzalarida kuzatilgan sel-toshqin hodisalarini “Konseptual jadval” yordamida qiyosiy tahlil qilish tavsiya etiladi (3-jadval) [1; 7; 9; 10; 11].

3-jadval.

Qiyosiy konseptual jadval: Glatsial va geodinamik toshqinlar xarakteristikasi

Taqqoslash mezonlari	Himolay (Trishuli / Lende Khola) hodisasi	Farg‘ona vodiysi (Shohimardon / Oxunko‘l) hodisalari
Genezisi (Kelib chiqishi)	Glatsial-nival hududlarda muzlik va qoya massalarining Lende Khola o‘zaniga qulashi hamda to‘g‘on o‘pirilishi [10].	Jala yomg‘irlari, mavsumiy qor erishi hamda morrena va to‘g‘onli ko‘llarning (Qurbonko‘l tizimi) toshishi [9].
Dinamikasi va oqiziqlar hajmi	Bir necha daqiqa ichida 2,5 mln. m^3 suv va ulkan tosh-loyqa massasining harakatga kelishi [11].	Oxunko‘l va Mashalang o‘zanlarida 9570 m^3 dan ortiq konus yoyilmalarining va ulkan xarsanglarning ko‘chishi [9].
Ijtimoiy-ekologik talafotlar	Infratuzilmaning izdan chiqishi, tog‘ landshaftlarining keskin o‘zgarishi [11].	Aholi punktlari, yo‘llar hamda gidrotexnik inshootlarning yuvilib ketishi [9].

Xulosa. Geografiya fanlarini o‘qitishda grafikli organayzerlardan foydalanish ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni ta’minlashning muhim omilidir. Grafikli organayzerlar:

1. O‘quv axborotini soddalashtiradi va vizuallashtiradi: Murakkab va keng hajmli tabiiy jarayonlarni (nurash, ekzogen geodinamika, sel va to‘g‘onli ko‘llar o‘pirilishi dinamikasini) tushunarli va ko‘rgazmali shaklga keltirish imkonini beradi.

2. Kognitiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi: O’quvchilarni shunchaki ma’lumotni yodlashdan qutqarib, axborotni taqqoslash, toifalash hamda sabab-oqibat aloqadorliklarini izlashga undaydi.

3. Auditoriya faolligini oshiradi: Guruhda va juftlikda ishlash, kartografik va sxematik materiallarni taqdimot qilish hamda jamoaviy diskussiyalar o‘tkazish orqali o’quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, tabiiy geografiya ta’limida grafikli organayzerlarni tizimli joriy etish ta’lim sifatini oshirish hamda bo‘lajak geograf-o‘qituvchilar va gidrometeorolog mutaxassislarning tahliliy salohiyatini yuksaltirishda yuqori pedagogik va ilmiy-amaliy samaradorlikni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2011/2012.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. -Toshkent: Iste’dod, 2008.
3. Olimova A. Geografiyani o‘qitishda kartografik metodni qo‘llashning zamonaviy yondashuvlari va asosiy tamoyillari // O‘zMU Xabarlari. -Toshkent, 2024.
4. Qalandarova M.K. Geografiya o‘qitish metodikasi (Amaliy ishlar). –Toshkent, 2022.
5. Tolipov O‘.Q., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -Toshkent: Fan, 2006.
7. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -Toshkent: O‘qituvchi.
8. Мавлонов Ғ.О., Маматқулов М.М. Табиий тўғонлар. -Тошкент: Фан, 1965. -33 б.
9. Пирназаров Р.Т., Ҳикматов Ф.Ҳ. Тўғонли кўлларнинг гидрометеорологик режими ва улар хавфини камайтириш масалалари (Қурбонкўл мисолида). –Т.: “Fan va texnologiya”, 2013. -176 б.
10. Kun.uz.
11. Daryo uz.

“KEYS-STADI” METODINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA TA’LIM TIZIMIDAGI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Pirnazarov Ravshan Topvoldiyevich
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi
Ermahammatova Mohlaroy Mamarasul qizi
Farg‘ona davlat universiteti Geografiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada interfaol o‘qitish texnologiyalaridan biri bo‘lgan “Keys-stadi” (Case Study) metodining mohiyati, maqsadi va ta’lim jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda metodning rivojlanish tarixi 5 ta asosiy bosqichga bo‘lib tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida metodni pedagogika, iqtisodiyot, huquqshunoslik va tibbiyot sohalarida qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari hamda uni normativ-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Keys-stadi, interfaol metod, Garvard metodi, kompetensiyaviy yondashuv, situatsion tahlil, muammoli vaziyat, ta’lim texnologiyasi, qaror qabul qilish.*

KIRISH

Bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan, axborotlar oqimi kuchaygan globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa – talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularni murakkab, noaniq real hayotiy vaziyatlarda tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishdir. Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, xususan, Keys-stadi metodini qo‘llashning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Keys-stadi - bu shunchaki interfaol o‘qitish usuli emas, balki nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantiruvchi, ta’lim oluvchiga real voqea-hodisalar asosida tahlil qilish,